

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
7-iyun
N:23
(66772)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Surxon — maftunkor yurt

Aziz bolalar!

Xabaringiz bor, «Barkamol avlod yili» muno-sabati bilan sizlarni Xorazm, Farg'ona, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi tengdoshlaringiz hayoti, orzulari, adabiyot, san'at, sport hamda boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan tanishtirdik. Bu safar gazelamizning maxsus sonini qadim va shahri Surxondaryo viloyatiga bag'ishlaganimiz ham bejiz emas.

Siz bilasizki, bu shahri vohaning O'zbek davlatchiligi tarixida alohida o'rni bor. Shahri so'zini behuda ishlatayotganimiz yo'q. Bu vohaning hali biz bilmagan juda ko'p sinoatlari borki, ularni o'rganish uchun olimlarimiz juda ko'p ter to'kishlariga to'g'ri keladi. Jannatning to'rtidan bir daryosi hisoblanmish ona Amudaryo ham shu vohaning tog'-u toshlaridan boshlanadi. Bu zaminda qaror topgan Baqriya davlatini bilasiz. Jahon fothihlaridan biri sanalgan Iskandar Zulqarnayn shu zamin aholisining mardligiga qoyil qolgan. Amir Temur bobongiz davlatchilik ramzi sanalgan tug' va nog'orani pirlari bo'lmish Sayyid Baraka qo'lidan qabul qilib olgan. Hakim Termiziy, Iso Termiziy, Xoja Alovuddin Attor va So'fi Olloyor kabi ulug'larimiz hoki shu manzilda abadiy makon topgan. Dalvarzintepani jahon biladi. U yerdan topilgan 32,5 kilolik tillo taqinchoqlarning bundan ikki ming yil oldin g'oyat nafis va jimjimador usulda yasalgani kishini hayratga soladi. O'sha zamonlarda ham ota-bobolarimiz o'z ahli ayollariga shunchalik nafis taqinchoqlar hadya etganlar. Bu nimani ko'rsatadi? Bu hurmat va ehtirom, e'zoz namunasi emasmi?!

Mochay g'ori haqida ham eshitgansiz. Miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklarda bu yerda odamlar istiqomat qilishgan.

Zarautsoyning tosh devorlarida 246 tadan ortiq ov manzaralari aks ettirilgan. Bu qadimiy, bebaho suratlar biz uchun juda qadri hisoblanadi.

Chunki bu suratlar bronza davriga oid bo'lib, taxminan 5-6 ming yil avval chizilgani tarixchi olimlar, arxeologlar, san'atshunoslar tomonidan tan olingan, isbotlangan.

Buyuk Ipak yo'lining Shohbekatida joylashgan Termiz shahri juda qadimiy bo'lib, shon-shuhrati bilan Samarqand, Buxoro, Xiva, Balx singari shaharlar qatorida turgan. Qoratepa, Kampirtepa, Fayoztepa, Ayritom kabi qadim manzillar dunyoga mashhur. Qariyb yigirma-yigirma besh yillardan buyon yapon olimlari bu yerda qazish ishlarini olib borishadi.



Denov
shahridagi
79-maktab o'quvchisi
Fazida
JASHPO'LATOVA

AXFAMQURBI

Bahar haqida o'tirib kelgay, biltir jannat Surxoniga,
Qaytib dil o'tirib kelgay, chiqib pishona Surxoniga.

Bahar haqida barkamol avlod bo'lib Shaharida-yo Shaharida,
Vatanini aylagay ekan, biltir marhamat Surxonida.

Mening ayvona tayyorim, savatim dillik avlodim,
Yurtda biltir chiqayim, g'ayim bo'lib Surxonida.

O'singan biltir davronam, ayngan biltir ko'chamam,
Yo'ldan bo'lib biltir o'tirib kelgayim Surxonida.

Alomat yo'lovchilarga yo'q, biltir o'tirib kelgayim bo'lib
Dunyo aylagayim biltir yo'q, o'tirib kelgayim Surxonida.

Savab, Astangul biltir, o'tirib kelgayim biltir o'tirib kelgayim,
Nafis aylagayim biltir o'tirib kelgayim, o'tirib kelgayim - Surxonida!

Davomi 8-betda

Yurtboshimizning e'tibori tufayli mamlakatimizda xalq ta'limi yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Viloyatimizda 2009-yilda 6 ta yangi maktab binosi qurildi, shuningdek, maktablarning 69 tasida kapital rekonstruksiya, 82 tasida kapital va 44 tasida joriy ta'mirlash ishlari bajarildi. Olib borilgan bunyodkorlik ishlarida quruvchilar bilan baqamti bo'lib mehnat qilgan o'qituvchi va boshqa xodimlarning xizmatini e'tirof etmoq joiz.



Ta'lim-tarbiya ishini harakatga keltiruvchi kuch muallimlar hisoblanadi. Shu tufayli ham maktablarni malakali kadrlar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozir o'quv maskanlarimizda 40484 nafar o'qituvchi mehnat qilyapti. Yana ingliz tili, matematika, fizika, informatika va kimyo fanlaridan 97 nafar mutaxassisga ehtiyojimiz bor.

Ta'kidlash lozimki, ta'limdagi islohotlar markazida muallim qadr-qimmatini ham turadi.

«O'qituvchilar va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami munosabati bilan samarali mehnati va ta'lim-tarbiya sohasida erishgan yutuqlari tufayli 6 nafar o'qituvchimiz Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Jumladan, Denov tumanidagi 1-maktab direktori Xosiyat Qorayeva «El-yurt hurmati» ordeni, Sherobod tumanidagi 60-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mopar Haydarova «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» unvoni, Sariosiyo tumanidagi 38-maktabning kimyo fani o'qituvchisi Saida Akromova «Mehnat shuhrati»

ordeni, Uzun tumanidagi 20-maktabning matematika va informatika fanlari o'qituvchisi Ra'no Nodirova «Do'stlik» ordeni, Qiziriq tumanidagi 42-maktabning o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi Shahlo Avazova va Jarqo'rg'on tumanidagi 10-maktabning matematika fani o'qituvchisi Halima Oltiboyeva «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi. Yana 84 nafar pedagog «O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

O'quvchilarni sog'lomlashtirish, jismoniy chiniqtirish, komil insonni tarbiyalashdagi vazifalardan biridir. Avvalo, 2009-yildan Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan viloyatda 17 ta sport zallari qurilib foydalanishga topshirilganligi hamda Termiz shahridagi suzish havzasi majmuasining kapital ta'mirlanganligini ta'kidlash joiz. Hozir viloyatdagi 15 ta stadion, 410 ta sport zali, shuningdek, boshqa inshoot va sport maydonlari yoshlar ixtiyoriga berib qo'yilgan. Bugun jismoniy tarbiya va sport bilan 75997 nafar o'quvchimiz

muntaam shug'ullanmoqda.

Turli ijodiyot, tabiatshunoslik, o'lkashunoslik, sayyohlik va boshqa yo'nalishlarda ishlayotgan 55 ta ta'lim maskanlariga 39560 nafar o'g'il-qiz qatnamoqda. Ular o'zlari qiziqqan to'garak mashg'ulotlarida qo'shimcha bilim olishyapti.

2009-2010-o'quv yili ham nihoyasiga yetdi.

O'quvchilarimizning yozgi ta'til davrida miriqib hordiq chiqarishlari uchun zarur sharoitlarni yaratdik.

E'tiborni «Barkamol avlod yili» Davlat dasturlarining to'liq bajarilishiga qaratganmiz. Muassasalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularda o'qish va o'qitish sharoitlarini yaxshilash, o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish kabi dolzarb vazifalar uzluksiz davom etaveradi.

Hayitoli ALMARDONOV,
Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi

ISMI JISMIGA

tinimsiz ishladi, o'qib-o'rgandi.

«Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovlarning tuman, viloyat bosqichlarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladi. Shogirdlari biologiya va kimyo fanlari olimpiadalarining tuman, viloyat bosqichlarida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritganlarida, mehnatlari samarasidan quvondi.

Uslubiy qo'llanmasi va noan'anaviy darsi ommalashtirildi. «Bobotog'ni asraylik!» mavzusida tayyorlagan ko'rgazmasi, ochiq darslari tuman tanlovida faxrli o'rinni oldi.

Kelajak yoshlar qo'lidadir! Ularni barkamol qilib tarbiyalash esa ustoz-murabbiylar qo'lida. Bu xayrli ishda Donoxol opamizga ham muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Iqbol SAFAR qizi

MAKTAB BO'LDI



Yurtimizda o'ziga xos an'analariga ega maktablar ko'plab topiladi. Sherobod tumanidagi 56-umumta'lim maktabi ham ana shunday maktablar sirasiga kiradi. Yaqinda «Ilg'or tajriba maktabi»

dasturi doirasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy seminar-trening maktabda olib borilayotgan amaliy ishlar salmog'ini yana bir bor namoyish etdi.

Tadbirda oid metodik ishlar ko'rgazmasi, maktab hayotiga oid videolavhalar ishtirokchilar tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olindi. Maktab uslubiy birlashmasining ish faoliyati, ochiq eshiklar festivali ko'pehlikda katta qiziqish uyg'otdi. Maktabning 3-«A», 7-«A», 8-«A», 8-«B», 9-«V», 9-«G» sinflardagi ochiq eshiklar darsi ishtirokchilar uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'ldi.

SH.TOSHPO'LATOV,
Sherobod tuman Xalq ta'limi bo'limi xodimi

Agar dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

Islom KARIMOV

ULJON OPA SABOQLARI

Ustozim faxrim mening!



Uzun tumanidagi 1-umumta'lim maktabi 37 yillik tarixga ega. O'quvchilar 75 nafar ustoz-muallimlardan o'zbek, rus va tojik tillarida saboq olib kelishyapti.

Maktabning nafaqat o'quvchilari, balki o'qituvchilari ham fan va sport sohasida tuman, viloyat, hatto respublika bosqichida o'tkazib kelinayotgan ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelishyapti.

Mazkur bilim maskanining mehdariyo pedagoglari o'quvchilarni ilm ziyosidan bahramand qilish bilan birga, jajji qalblarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimiz, an'alarimiz, urf-odatlarimizga hurmat, ona tabiatga mehmuhabbat tuyg'ularini singdirishadi. Shu dargohda 25 yildan buyon



o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelayotgan Uljon Musurmonova ana shunday fidoyi insonlardan biri. Opa o'z ustozlari o'g'itlariga tayanib, til millatning yuzi, uni asramoq – millatni ulug'lamoqlik ekanligini uqtirib kelyapti. Darslarini noan'anaviy tarzda o'tadigan ustozning ish tajribasi nafaqat tumanida, balki viloyatda ham ommalashtirilgan. Uljon opa Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi

bilan umumta'lim maktablari fan o'qituvchilari orasida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining g'olibi bo'ldi. Ustozning astoydil qilgan mehnatlarini shogirdlari fan olimpiadalaridagi yutuqlari hamda o'zlashtirishlaridagi 87 foizlik

sifat ko'rsatkichi bilan oqlayptilar.

Ustoz tumanida o'tkazilayotgan o'quv-seminarlarda metodik maslahatlari bilan qatnashib, tashabbuskorligi bilan yosh hamkasblariga o'mak bo'lib kelyapti.

Har bir darsini san'at darajasida o'tadigan Uljon opa «Maktab va mahalla» konsepsiyasiga amal qilgan

holda ota-onalar, mahalla bilan hamkorlikda ish yuritadi. Sinf rahbari sifatida har bir o'quvchisini psixologik tahlil qilib, ularning oilaviy sharoitini o'rganib, tegishli maslahatlar beradi.

Uljon opa singari mohir, tajribali ustoz-murabbiylar tuman yoshlarini bilimli, hunarli, sog'lom, bir so'z bilan aytganda, barkamol qilib tarbiyalashdek ezgu ishlarga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda.

Bunday insonlar safi kengayaversin!

Barcha maktablarda bo'lgani kabi Termiz shahridagi 9-umumta'lim maktabimizda bo'lib o'tgan so'nggi qo'ng'iroq kuni barchaning, ayniqsa, 163 nafar bitiruvchilar hayajoni cheksiz edi.

BEFARQ EMASMIZ

Aslida qadrdon maktabi bag'ridan mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan o'g'il-qizlar oldida, tahsilni qayerda davom ettirsam ekan, degan savol ko'ndalang turadi. Bizning bitiruvchilarimizni esa bu savol unchalik o'ylantirmadi. Sababi, yil davomida ularni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ish olib bordik. Bu borada ishchi guruhi tashkil qilingan bo'lib, har oyning yakunida 7 kishidan iborat komissiya a'zolarining hisoboti eshitib borildi. O'quv yilining boshida ota-onalar bilan suhbatlar, so'rovnomalarni tashkil etildi. Bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha o'quvchilar bilan har chorakda ikkitadan, yil davomida jami yettita metodik test so'rovnomalari o'tkazildi. Bunday so'rovnomalarni o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, qobiliyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bitiruvchilar orasida «Mening orzum», «Tanlagan kasbing – sening kelajaging» mavzularidagi insholar tanlovi, litsey va kollejlarga uyushtirilgan sayohatlar, kollej hayotidan tayyorlangan lavhalar va albomlar o'z ijobiy samarasini bermoqda.

Tumanimizdagi barcha litsey, kollejlarni shartnomalar tuzib qo'rganmiz. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan bitiruvchilarimiz o'zlari tanlagan bilim maskanlariga hujjat topshiradilar.

Ayrim ota-onalarimiz farzandlarining qaysi o'quv dargohida tahsil olishiga befarq ekanliklari bizni taajjubga soladi. «Kasbing – baxting», deydi dono xalqimiz. Shunday ekan, farzandlarimizning baxtli taqdiri oldida mas'ulligimizni unutmaylik.

M.BERDIYEVA,
psixolog, ijodkor o'qituvchi

Siz suratda ko'rib turgan kichikintoylar Uzun tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari. Bu jajjilarning ustozlar borasida omadlari chopgan. Ularga mazkur bilim maskanida 17 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan shahnoza Niyozqulova noan'anaviy usullardan, hozirgi zamon pedagogika texnologiyalaridan keng foydalan-

gan holda saboq berib kelyapti.

Tajribali ustoz o'quvchilari bilan turli tadbirlar uyushtirib, maktab, tuman miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib kelishyapti.

Qoyalarning quchog'ida qolgan bolalik...

Bolaligim Denovning Vaxshivor qishlog'ida o'tgan. O'yinqaroq hislarim qoyalarning to'shida, buloqlarning bo'yida qolgan. 7-sinfgacha Lo'kkadagi maktabda tahsil olib, Vaxshivordagi Ushinskiy nomli maktabning 8-sinfida o'qishni davom ettirdim. Keyinchalik Qarshi Davlat oliyog'ohini sirtidan tamomlab, ish faoliyatimni Lo'kkadagi o'zim o'qigan maktabda boshladim.

Adabiyotga qiziqishim bolaligimdan boshlangan. Bunga rahmatli onam Hayitoy Ikrom qizining tonggacha so'ylagan ertaklari va ustozim T.Turdiyevning saboqlari turtki bo'lgan desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Ilk ijod namunalarim dastlab tuman, viloyat, respublika nashrlarida chop etilib, keyinchalik she'rilarim, dostonlarim «Boychechak», «Yoshlar ovozi» nomli jamoa to'plamlarida nashrdan chiqdi.

«Qo'shiq – qanotim», «Vaxshivor va So'fi Olloyor», «Seni izlayapman», «Gumon va iymon» kabi kitoblarim muxlislarim qo'lga yetib borgan. Ayni paytda «Do'ppi tikkin men uchun» nomli she'riy to'plamim ustida ishlayapman.

«Qiz qo'rg'on», «Qirq qiz», «Farhod bobo», «O'tmishdan sado», «Nargis», «Malikai Sumanbar», «Mohlaroyim» kabi dostonlarimning xalq mulkiga aylanganidan, o'nlab she'rilarim hozir tomonidan kuyga solib kuylanayotganidan behad mamnunman.

Meliqul XANJAROV,
Oltinsoy tumanidagi
34-umumta'lim
maktabining ona tili
va adabiyot fani
o'qituvchisi



«ALPOMISH»GA
SUYAN

«Alpomish»ga suyan, do'stim,
«Alpomish»da oriyat bor, vijdon bor.
«Alpomish»ga suyan, do'stim,
Alplar unda talashishar nomus, or.

«Alpomish»ga suyan do'stim,
Unda elni el qilguvchi ustun bor.
«Alpomish»ga sig'in do'stim,
Bolam degan bir un bordir, Boysun bor.

«Alpomish»ga suyan do'stim,
«Alpomish»da pok sevgi bor, yor-yor bor.
«Alpomish»ga sig'in do'stim,
Oshiq'larga chechak tutgan bahor bor.

«Alpomish»ni saqla do'stim,
Chaqaloqlar beshigining boshida,
«Alpomish»ni qo'ygin do'stim,
Alla ayigan kelinlarning qoshida.

Yoqub NORSAIDOV,
Boysun tumani, o'qituvchi

ONA GULIM

Xayrigulim, sen gul emas, bir olamsan,
Sen onamdan qolgan yodgot, sen nolamsan!
Mushfiq onam diydoridan to'y magandim,
Boshing egma, yuzing ko'ray, sen onamsan!

Ko'z yoshimdan sen ulg'ayding, ildizimsan,
Tongda quyosh, tunda o'zing yulduzimsan.
So'zla gulim, onajonim payg'omini,
Elchi gulim, sen aslida dil so'zimsan.

Ona gulim, sen shirinsan jon-dilimdan,
O'g'lim deya bir erkalat, tut qo'limdan.

Yolg'iz qoldim, nima qilsa, qildi taqdir,
Dardli gulim, sen onamdan menga gapir.
Sen qalbmida yashab turgan gul-onamsan,
Sarig' guling yuzlarimga o'xshar axir.

Ko'z yoshimdan sen ulg'ayding ona-gulim,
O'g'lim deya bir sado ber, jon-u dilim.

Seni izlab faqat kutgum fasti bahor,
Shivirlaysan, ona gulim, sen beg'ubor.
Yanog'ingga shabnam qo'ndi, yig'ladingmi?
Gul bo'lsang ham, senda onamning mehri bor.

Ona gulim, sen shirinsan jon-dilimdan,
O'g'lim deya bir erkalat, tut qo'limdan.

Xayrigulim sen gul emas, bir olamsan,
Boshing egma, yuzing ko'ray sen onamsan...

Najmiddin MIRZO,
o'qituvchi

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasi adabiyot
olamiga yonib kirib kelgan Tog'ay Murodga
katta shuhrat keltirgan edi.

Bu asar insonning nima-
larga qodirligi borasida
yozilgan mardona kitobdir.
Qissa bosh qahramoni
Bo'ri polvon o'g'li Tilov-
berdining bellashuvini
kuzatib tursa-da, unga
yon bosmaydi, bunga
vijdoni yo'l qo'ymaydi.

Yozuvchi Tog'ay Murod ijodda ham polvonlarga xos salobatini,
kengligini yo'qotmadi. Birin-ketin dunyo yuzini ko'rgan hikoya, qissa
va romanlari muxlislar qalbidan munosib o'rin oldi. Uning asarlari
asosida suratga olingan video va badiiy filmlar tomoshabinlar
xotirasida bir umrga muhrlanib qoldi.

Adib «Yulduzlar mangu yonadi» qissasini yakunlar ekan, «Yo'q,
oshna yo'q! Yulduzim hali yonadi! Davralarim hali davom etadi!
Nevaralarim davralarda: –Yo, bobomning piri! – deya hayqirib-
hayqirib olisha beradi!»

«Yulduzim mangu yonadi!» deydi.

Haqiqatan ham adibning mehnatlari besamar ketmadi.
O'zbekiston xalq yozuvchisi degan yuksak nomga va Davlat
mukofotiga sazovor bo'ldi. Biz o'quvchilar adib asarlarini bugungi
kunda ham sevib o'qiyamiz.

Umbar JALILOV,
Oltinsoy tumanidagi 43-umumta'lim
maktab o'qituvchisi

Kim

Sherobod tumanida bu yil
3644 nafar o'g'il-qiz mak-
tabni tamomladi.

Tuman tashxis markazi
tomonidan barcha bitiruv-
chilar va ularning ota-onalari uchun 3644 dona kitobcha
tarqatildi. Mazkur kitob-qo'llanmada tuman va
viloyatdagi kasb-hunar kollejlari, akademik litseyleri,
ularning yo'nalishlari hamda shart-sharoitlari haqida
to'liq ma'lumotlar berilgan.

Ana endi siz ham sherobodlik tengdoshlaringizning
kasb-hunar tanlashlari uchun yaratilgan qulayliklar
bilan tanishib oldingiz. Bunday g'amxo'rlikdan barcha
bitiruvchilar mamnun bo'lishdi.

B.QILICHEV,
Sherobod tumani Xalq ta'limi bo'limi
tashxis markazi boshlig'i

bo'lmoqchisiz?

Biz 5-«A» sinfida o'qiyamiz.
Sinfimizda 32 nafar o'quvchi ta'lim
oladi. Barchamiz juda ahilmiz. Biz bir-
birimizga nafaqat darsda ko'mak-
lashamiz, balki darsdan keyingi
jamoat ishlarini ham bir
yoqadan bosh chiqarib
bajaramiz. Misol uchun, bu
yil 470 kg. metall-1 om, 50
kg.dan ortiqroq maku-
latura yig'ib topshirdik.
Obuna mavsumida esa
«Tong yulduzi», «Bilimdon»,
«Gulxan» nashrlariga obuna bo'ldik.
Bu sevimli mashg'ulotimizni yozgi
ta'ulda ham davom ettirish
niyatidamiz. Sinf rahbarimiz taklifi

Yana
kitob
o'qiyamiz

bilan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» shiori
ostida juda ko'p kitoblarni mutolaa
qilamiz. Bundan tashqari, sinf
rahbarimiz Dilbar opa Normu-
rodova «Tong yulduzi»
gazetasi sahifalarida berilgan
yangilik va maqolalardan
o'qib beradilar.

Bundan keyin ham
sinfimizdagi a'lochi
o'quvchilar sonini ko'pay-
tirib, «Barkamol avlod
yili»da barkamol farzand
sifatida olg'a intilmoqchimiz.

Termiz shahridagi
II-maktabning
o'quvchilari

Men Surxondaryo viloyati, Qumqo'r-
g'on tumanidagi 4-umumta'lim maktabida
tahsil olaman. Maktabimiz 700 o'rinli
bo'lib, unda 25 ta sinf mavjud.
Direktorimiz Mahmud aka Iminjanov
nafaqat oliy toifali o'qituvchi, balki
biologiya fanining ham bilim-
donidirlar. Uch qavatli maktabimiz
binosi 2008-2009-yillarda kapital
ta'mirdan chiqqan maktabimizga
barchaning havasi keladi. Negaki,
barcha sinf xonalari yangi jihozlar,
sport zali esa yangi anjomlar bilan
ta'minlangan. Bundan tashqari,
maktabimizning axborot resurs
markazida o'quvchilar uchun ertak va
badiiy kitoblarni juda ko'p.

Biz o'quvchilarning har tomonlama
mukammal bo'lishimiz uchun turli

MAKTABIMIZ
OYNASI

to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Masalan, sport
to'garaklaridan taekvando, milliy kurash, shaxmat,
shashka, stol tennisi va qizlar uchun badiiy
gimnastika to'garaklari mavjud. Fanlardan esa
ona tili va adabiyot, kimyo, biologiya, fizika,
matematika asosiy fan to'garagi
hisoblanadi. Iste'dodli o'quvchilar uchun
esa raqs va drama to'garagi faoliyat
ko'rsatmoqda. Shu sababdan bo'lsa
kerak, maktabimiz o'quvchilari tuman va
viloyatda bo'lib o'tadigan fan olimpia-
dalarida faxrli o'rinlarni egallab qaytish-
moqda. Ana shunday zehni o'tkir,
bilimdon o'quvchilarni maktabimiz oynasi
degim keladi. Maktabimiz oynasiga hech
qachon ko'z tegmasin.

Muyassar TO'RAYEVA,
9-sinf o'quvchisi



Bilmasangiz, Sho'rchi tumanidagi 18-bog'cha-maktabga keling. Unut bo'lib ketayotgan milliy o'yinlarimizdan «Chillak», «Xo'rozlar jangi», «Oshiq» o'yinlarini katta qiziqish bilan o'ynayotgan kichkintoylarni ko'rib, hayratingiz ortadi.

Mazkur tumanda 34 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 2245 nafar kichkintoy tarbiyalanmoqda. Mazkur muassasalarda bolalarni ta'limga jalb qilish maqsadida savodxonlik guruhlarini tashkil etilgan. Tarbiyachilar bog'chaga qatnamayotgan bolalarni ham savodxonlik guruhlariga jalb qilishmoqda.

Kichkintoylarga tarbiya berib kelayotgan 213 nafar pedagog xodimlar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ham yaxshi yo'lga qo'yishgan. Har bir bog'chadagi ma'naviy-ma'rifiy xonalar bukletlar, foto albomlar bilan bezatilgan. Xalqimizning boy madaniy merosi, an'analari, udum va qadriyatlarini aks ettirilgan fotosuratlar,

ko'rgazmalardan iborat kichik muzey tashkil etilgan.

«Milliy qadriyatlarimiz», «Milliy o'yinlarimiz» mavzularidagi seminarlarda kichkintoylarga yo'qolib borayotgan o'yinlarimiz hamda milliy liboslarimiz haqida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, «Toleing ulug' bo'lsin, bolajon!» mavzuida 8-bog'cha-maktab majmuasida o'tkazilgan ko'rgazmali seminar namoyish etilgan «Alla» sahna ko'rinishi orqali kichkintoylar

qalbida milliy udumlarimizga hurmat tuyg'usi singdirilayotgan bo'lsa, «Zakovat» o'yini orqali ularning intellektual bilimlari boyib boryapti.

Bunday ezgu ishlarni amalga oshirayotgan tarbiyachilarimizga omad tilaymiz.

X.PARDAYEVA,

maktabgacha ta'lim muassasalari bo'yicha uslubchi



ViLOYATGA QILGAN SAFARIMIZ CHOG'IDA JUDA KO'PLAB MAKTABLARDA, BOLALAR MUASSASALARIDA BO'LDIK, IJODKOR O'QITUVCHILAR, O'QUVCHILAR BILAN TANISHDIK.

Uzun tumanidagi 3-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Maqsuda Muhammadiyevaning «Xalq og'zaki, poetik ijodi» nomli dars qo'llanmasi diqqatimizni tortdi.

Quyida ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz.

TOPISHMOQLAR

«G'it-g'it» etib ishlaydi,
Yerga kukun tashlaydi. (Arta)

Og'zini katta ochar,
So'ng tishlab olib qochar. (Ombur)

Oqqina tovuq somon sochar. (Panshaxa)


«ALPOMISH»

boshqotirmasi

A									
L									
P									
O									
M									
I									
Sh									

- Eng kuchli.
- Navoiy dostoni qahramoni.
- Rajabxo'ja eшон.
- Baxshi.
- «... ayyor» doston nomi.
- Tayka shohning istagi.
- Bolalarga ism qo'ygan pir.

RASMLAR KO'RGAZMASI



Muzrabot tumanidagi 32-umumta'lim maktabida tasviriy hamda amaliy san'atga mehr qo'ygan iqtidorli o'quvchilar talaygina. Mazkur bilim dargohining 5-sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Faxriniso Nazarovaning tasviriy san'atga mehri bo'lakcha. Ayniqsa, so'lim qishlog'i manzaralarini mo'qqalam orqali tasvirlash jon-u dili.

Yosh musavvirning «Qishlog'im manzaralari» nomli turkum rasmlaridan «Rasmlar ko'rgazmasi» tashkil qiloidik.



shu maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Akrom Vohidov ham tasviriy va amaliy san'at ixlosmandi. Rassomchilik to'garagiga muntazam qatnab, iste'dodini viloyat «Baxtli bolalik» bolalar festivalida, viloyat, respublika «Yangi avlod-2009» festivallarida namoyish etib, faxrli o'rinni egalladi.

2010-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'tkazilgan «Tabassum - 2010» ko'rik-tanlovining Muzrabot tumani bosqichida «Mening yurtim - mening iftixorim» nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi.

Akromjon va Faxriniso singari iqtidorli o'g'il-qizlar nafaqat maktabi, balki tuman, viloyat, qoleversa, yurtimiz dovrug'ini dunyolarga tanitsalar, ne ajab?!



MAJNUNTOL

Soy bo'yida majnuntol,
Qadding nega buncha dol.
Terakday tik o'smaysan,
Kokillaring yig'maysan.

Majnuntol, hoy majnuntol,
Savol bersam bo'lma lol.
Ibodanmi bu holat,
Nedan bo'lding xijolat.

Dildagi qo'shiqmisan,
Yo soyga oshiqmisan.
Majnuntol, hoy majnuntol,
Sevdingmi, majnun misol.

Dildora HAFIZOVA,
Denov tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

**OSMONING TINCH**

Agar bo'lsang mening onam
Ona Vatan, bolangdirman.
Gar bo'lsang tog', bag'ringdagi
Unib chiqqan lolangdirman.

Agar bo'lsang moviy osmon
Ko'ksingda oq bulutingman.
Qadam yetmas cho'qqi bo'lsang
Hushyor turgan burgutingman.

Agar bo'lsang ajib gulshan
To'yib xushbo'y hiding tuysam.
Chah-chahlagan bulbul kabi
Vatan, seni jondan suysam.

Bag'ring bo'ston bo'lsin, Vatan,
Tikonlar hech tilolmasin.
Osmoning tinch, qushlar uchsini
Zog'lar raxna sololmasin.

Dilobar QOBILOVA,
Sho'rchi tumanidagi 16-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi

VALI VA UKASI

Tokchadagi kosani,
Sindirib qo'ydi Vali.
Ko'rib qoldi ukasi,
Yomon bo'ldi ahvoli.

Oyimga aytna, deya
Kayfiyati buzildi.
Muzqaymoq olib berish
Shartnomasi tuzildi.

Horib-charchab oyisi,
Kechqurun ishdan qaytdi.
Erkalanib ukasi,
Bo'ynidan quchib aytdi:

– Bilasizmi, oyijon,
Men so'zimdand qaytmayman.
Kosaning singanini,
Sizga sira aytmayman...

Oynaxol MAMAZIYAYEVA,
Oltinsoy tumanidagi 46-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

QAYNOQ

*Surxondaryoda so'zlari she'rga aylanib ketadigan shoir-u
do'mbirasining kuyi Alpomishning ming yillik nolasiga jo'r
bo'ladigan baxshilar ko'p. Bu, albatta, muhitga bog'liq. Bepoyon
dasht-u dalalar, purviqor tog'lar qo'ynida quyoshning qaynoq mehrida
toblanib yurgan kishining qalbini she'rsiz tasavvur etish qiyin.
Aziz o'quvchi, surxondaryoliklarning qaynoq ijodidan bugun siz
ham bahramand bo'ling!*

IJOD MAHSULI**YURAKKA MUHR
AYLANG**

Mana yillar ham o'tdi,
Dilda g'am, ko'zda namlar.
Ortga qaytmas endi hech
Bizlar o'qigan damlar.

Do'st-u dugonalarim,
Goh qattiq non tishladim.
Ustozlarim qoshida
Mudom yonib ishladim.

Bizlar bir tan, bir jonmiz,
Yerda o'sgan marjonmiz.
Navoiy, Boburlardek
Yurtga mudom qo'rg'onmiz.

Ayro bo'lsa-da yo'llar
Baxtni siz to'g'ri saylang.
Har bir o'tgan kunimiz,
Yurakka muhr aylang!

Gulruksor SAIDOVA

**QISHLOG'IM**

Olislarda yursam-da,
Xayolimda sen doim.
Men seni sog'inaman
Tug'ilgan ona joyim.

Sen bunchalar fusunkor,
Tuproq'ingda mehr bor.
Yuragimdagi bahor,
Jonajonim qishlog'im.

Tonglar go'zal otganda,
Meni zavq uyg'otganda.
Gullar mehrin totganda
Ortaverar ardog'im.

Yuragimning gulshani
Seni e'zozlay mudom.
Bibixonim nomingga
Aylay dildan ehtirom.

Shahlo SULAYMONOVA,
Sartosiyoy tuman

**DOIRA CHALAR
OSMON**

Bugun yomg'irlar yog'ib,
Ko'kda chaqmoq ham chaqdi.
Bulut quyoshni quvib
Gumburlab qo'shiq aytdi.

Gumbur-gumbur, gumburlab
Doira chalar osmon.
Bulutlar qochganiga
Singlim-la qoldik hayron.

Mohina ABDUSALIMOVA,
6-sinf o'quvchisi

**DUNYO ERTAK EMAS**

Ertakdan boshlangan bolaligimiz
Ertakning yaxshilik bobini totdik.
Ulg'ayib, dunyoni ko'rib boryapmiz
Yaxshilik yo'lini goho yo'qotdik.

Ertakka o'xshamas ne uchun dunyo,
Unda yaxshiliklar bo'ladi doim.
Ertakda adolat bo'ladi g'olib,
Dunyo ertak bo'lsin menga, Xudoyim.

Dunyo ertak emas, buni kech bildim
Yo'qsa ulg'aymasdan qolgan bo'lardim.
Ertaklar olami chorlagan paytda,
Haqiqat bag'riga chopib kelardim.

Sirojiddin IBROHIMOV,
Termiz akademik litseyining
1-bosqich talabasi



Surxon diyoriga o'tlanayotgan mehmonga do'stlari hazillashib: «U yerga borsang, belbog'ingni mahkam bog'lab borgin», deyishadi. Sababi, surxonliklarning qonida hanuzgacha Alpomishning mardligi-yu Barchinoyning tantiligi bor. Bu bejiz emas. Ular kurash maydonlarida dunyo ahlini lol qoldirib, ajdodlarga munosib avlod bo'lish an'alarini qadrlab kelmoqdalar.



Haqberdi boboning yaqinda nashrdan chiqqan «Surxon polvonlari» nomli kitobi kurash ixlosmandlari uchun ajoyib sovg'a bo'ldi

kurashi bo'yicha «Haqberdi hoji Norboy o'g'li» klubi prezidenti, barkamol avlod tarbiyasiga munosib ulush qo'shayotgan polvon Haqberdi bobo chin ma'noda chempiondirlar.

Haqberdi ota Yaponiyaga ketayotganmish, desa gapga ishonmagan bolakaylar otanalariga ergashib, polvon boboni kuzatgani

86 yoshli bobo champion bo'libdi! Yo'g'-e, deysizmi? Ishonavering. Faxriylar o'rtasida jahon chempioni, xalqaro kurash akademiyasining haqiqiy a'zosi, o'zbek milliy

HAQBERDI CHOL YAPONDA

chiqishdi. Mish-mishlar to'g'ri bo'lib chiqdi. Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan, beli bukilmagan, ko'ksini medallar shodasi bezab turgan polvon bobo chindan-da 3-jahon chempionatiga o'tlanayotgan ekan.

Otaxonni qo'ni-qo'shnilar, qarindosh urug'lari, shogirdlari birma-bir bag'rilariga bosib, oy borib, omon keling, deya unga oq yo'l tilashdi.

Hamyurtlarining duosi polvonni maydonda qo'lladi. Musobaqani faxriylar boshlab berishdi. Haqberdi bobo raqibini birinchi qo'ldayoq «halol» ko'tarib urdi. Dunyoning to'rt burchagidan kelgan muxlislar qiyqirig'idan zavqlangan otaning o'zi ham ularga qo'shilib, qo'llarini baland ko'tarib hayqirdi. Xorijlik jurnalistlar boboni qutlash uchun maydonga o'tilishdi. Polvon otalarining savollariga tushunmasada, g'alaba bilan tabriklashayotganini anglab turardi.

Ertasi kuni butun Yaponiya Haqberdi polvonni olqishladi. «World champions» jurnali surxondaryolik 86 yoshli chempionni madh etdi...

2001-yilning avgustidagi bu voqeadan so'ng polvon bobo kurash maktabini ochishga astoydil bel bog'ladi. Yelib-yugurib, «Haqberdi hoji Norboy o'g'li» klubini ochdi. Bugun bu maktabda 200 dan ortiq Surxonning yosh kurashchilari tarbiya olmoqda. Ulardan o'n besh nafari yetim bolalar, 18 nafari kam ta'minlangan oilalar farzandlaridir.

Yaqinda tinib-tinchimas otaxon klub qoshida badiiy gimnastika bo'limini ham tashkil etdi. Hozir maktabda gimnastika bilan shug'ullanayotgan qizlar soni kundan-kun ortib borayapti. Ular ayni damda yirik musobaqalar g'olibiga aylanmoqdalar.

Bolajonlar, Antey haqidagi afsonani eshitgandirsiz?! Bu afsona negadir Yunonistonda emas, aksincha, Sharqda yaratilgan, degan fikrlar ham yo'q emas. Negaki, Anteyning oyog'i yerdan uzilsa kuchsizlanadi, oyog'i yerga tegsa quvvatlanadi. O'zbek kurashida maydonga chiqayotgan polvon borki, ikki kaftini tuproqqa tekkazib, yuziga tortadi. Shu tariqa o'zbek kurashi jahon kurash maydonlarida o'zbekcha «gapiradi».



Sport sohasida erishayotgan yutuqlarimizning salmog'i yildan-yilga ortib borayotganidan quvonamiz.

Mamlakatimizdagi 3-bosqichli sport tizimining birinchi bo'g'imi «Umid nihollari» musobaqasida o'smirlarimiz qo'l to'pi bo'yicha 2-o'rinni egallashdi. Shuningdek,



Yoshlar parvozi

yengil atletika musobaqalarida sho'rchilik Abbos Jabborov kumush, sariosiyolik Shuhrat Xolboyev bronza, belbog'li kurashdan oltinsoylik Zuhridin Qayumov bronza, sport gimnastikasidan denovlik Abror Omonov kumush va Zulfiya Qayumova bronza medallari sohibi bo'lishdi.

Shaxmat bo'yicha 14 yoshli bolalar o'rtasidagi O'zbekiston birinchiligida Denov shaxmat maktabi o'qituvchisi Bobur Sattorov birinchi o'rinni egallab, Osiyo birinchiligida qatnashadigan bo'ldi. Karate bo'yicha O'zbekiston chempionatida vakillarimiz 5 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi. 1993-1994-yillarda tug'ilgan o'quvchilar o'rtasida Guliston shahrida bo'lgan boks bo'yicha O'zbekiston mintaqaviy birinchiligida Denov tumanidagi 77-maktab o'quvchisi K.Ibrohimov va 7-ixtisoslashtirilgan maktab-internatidan S.Toshmurodov 3-o'rinni egallashdi. Angren shahrida boks bo'yicha o'smirlar o'rtasida «Yoshlik jismoniy tarbiya va sport jamiyati» markaziy kengashi sovrini uchun bo'lgan musobaqada Termiz tumanidagi 9-maktab o'quvchisi Mirjalol Choriyev 1-o'rinni, Termiz shahridagi 9-maktab o'quvchilari Akbar Alimov, Nodir Uralov ikkinchi, Termiz tumanidagi 17-, Jarqo'rg'ondagi 11-maktab o'quvchilari Otabel Qulsoatov va Murod Mengqulov uchinkchi o'rinni band etishdi.

Imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida Buxoroda o'tkazilgan respublika sport musobaqasida Sho'rchi tumanidagi 122-maxsus maktab-internat jamoasi birinchi o'rin sohibi bo'ldi. Toshkent shahrida o'tgan sport va badiiy gimnastika turnirida 68-maxsus maktab-internat o'quvchisi Matluba Aliqulova 2 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarni qo'lga kiritdi.

HAMMASI ERTAK MISOL...



Andijonda bo'lib o'tgan musobaqalarda men sportning yengil atletika turi bo'yicha qatnashib, Surxondaryo viloyati sharafini himoya qildim. «Universiada – 2010» sport musobaqasida 1,5 ming metrga yugurish bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritdim. Bellashuv kunlari go'yo ertaklardagi hayotga o'xshab ko'rindi. Bizlarga yaratilgan shart-sharoitlar va g'amxo'rliklardan kuch-quvvat oldik. Endi xalqaro musobaqalarga dadil qadam qo'yamiz. Yengil atletika bahslari juda qiziqarli va murossasiz o'tdi. Kuchlilar orasida kuchli bo'lish men uchun ham oson kechmadi. Toshkent shahri, Navoiy va Samarqand viloyati vakillari musobaqada yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar. Shunga qaramasdan 2-o'rinni olganimdan xursandman.

Sitora HAMIDOVA, «Universiada – 2010» musobaqasining kumush medal sovrindori

Javohir Haydarov bu yil 1-sinfni tamomladi. Harflarni tanib olish, ularni hijjalab o'qish barcha kichkintoylar uchun oson kechmaydi. Bizning jajji Javohirimiz esa o'qishni qoyillatib, viloyat chempioni bo'lishdek baxtga ham erishdi. 25 kilogramm vazn toifasida tengqurlari o'rtasida Muzrabot tumani ochiq chempionatida yakka jang turi bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritdi.

JAJJI JAVOHIR



MUZRABOT BOLALARI



Davron Abdurasulov 9-sinfni bitirish arafasida viloyat chempioni bo'ldi. U har gal musobaqalarda ishtirok etayotganida, muzrabotliklarning ishonchini oqlashga harakat qiladi. Tumanda faoliyat yuritayotgan Sharq yakkakurashi va jang san'ati markazi federatsiyasida Davronjondek yosh polvonlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Termiz shahri yaqinidagi Sulton Saodat maqbara majmuasi xuddi Samarqanddagi Shohi Zinda yodgorligi singari dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Taniqli sayyoh Ibn Battuta «Sayohatnoma» kitobida Termiz haqida shunday yozadi: «Bu chiroyli imoratlar va bozorlari ko'p bo'lgan yirik shahardir. Uni boshdan-oyoq anhorlar kesib o'tadi, bog'lari ham juda ko'p. Ayniqsa, uzum bilan behisi juda shirin, go'sht, sut juda serob».

Rui Gonsales Klavixo ham shahar haqida iliq so'zlar aytgan: «Shahar atrofida ko'plab bog'lar va anhorlar joylashgan. Bu shaharga kirganimizdan so'ng xilma-xil mollar sotiladigan gavyum shahar va maydonlardan yurib bordik».

Mashhur shoir Adib Sobir Termiziy bundan ming yillar burun shu shaharda yashab ijod etgan. Yusuf Hayyot Termiziy, Abul Muzaffar Termiziy, Varroq Termiziy kabilarning nomlarini shu mitti maqolada sig'dirish qiyin. Chag'oniyon adabiyoti haqida soatlab gapirish mumkin.

Olislardan Alpomish mingan saman otning dupurlari quloqqa chalinib, yuraklarni junbushga keltiradi. Surxonning har bir o'smiri o'zini Alpomish hisoblaydi. Siz ham Alpomish bo'lishni xohlasangiz, shunday niyat qiling.

Chag'oniyon davlati tarixi shunchalik qiziqki, uni o'rgana boshlasangiz, dilingiz hayratlarga to'ladi. Usturlob degan yulduzlarni kuzatadigan asbob bor. Abu Hamid Usturlobiy as-Sag'oniy degan olim yasagan shu asboblarni. Eng qizig'i, sag'oniyalar bir nechta bo'lgan.

Daqiqiy degan shoir ham shu vohadan chiqqan. Nuh ibn Mansur unga «Shohnoma» yozishni buyuradi. Shoir asarning bir ming uch baytini yozishga ulguradi, ammo bir kechasi bazmda

nokas qullaridan biri uni pichoqlab o'ldiradi. Firdavsiy o'z «Shohnoma»siga Daqiqiyning bir ming uch baytini hech bir o'zgarishsiz kiritgan. Farruxiy, Tohir Chag'oniy kabi mashhur shoirlarning taqdir va ijodlari biz uchun ahamiyatli, albatta.

Xullas, bolalar, bu gaplarni aytishdan murod ne? Oldingizda ana shunday bebaho xazina turibdi. Uni o'rganish, tadbiiq etish, xalqqa yetkazish har birimizning sharaflari va zimmasidir.

Bugungi kunda viloyat xalq ta'limi muassasalarida mehnat qilayotgan 33143 nafar ustoz murabbiylar surxonlik muxlislarimiz – bolalar va o'smirlarni o'z Vatanini sevadigan, ona O'zbekiston uchun Alpomish va To'marislardek mard farzandlar bo'lib yetishishlari yo'lida fidoyilik qilayaptilar. Biz bugun ular haqida ham so'z yuritamiz.

Maqolaga nuqta qo'ymoqchi bo'lib turganimda, viloyatning Sariosiyo tumanida yashovchi muxlisimiz D.Mingboyevadan xat keldi. Unda shunday so'zlar bor ekan:

«Bu yil «Tong yulduzi» obunachilari soni yanada ortadi. O'tgan o'quv yilida shu gazetaga obuna bo'lib, ko'p narsalarni bilib oldim. Buni ko'rgan dugonalarim menga havas qilishdi».

Fikr-mulohazalarimiz bo'lsa, bizga albatta yozib yuboring. Yozgi ta'til, o'qigan kitoblaringiz, ko'rgan-bilganlaringiz haqidagi maktublaringizni, ijodingizdan namunalarni kutamiz. Siz yuborgan birorta xat-xabar e'tiborsiz qolmaydi.

Biror savol tug'ilib qolsa, internet orqali yoki 8-371 244-27-25 telefoniga qo'ng'iroq qilib, Zubayda opangizni so'rasangiz, xatlaringiz taqdiri haqida albatta javob olasiz.

To'liq HAYIT

TAHRIRIYATDAN:

Nihoyat Surxondaryo bo'ylab qilgan safarimiz ham poyoniga yetdi. «Barkamol avlod yili» munosabati bilan kelajagimiz davomchilarining cheksiz sa'y-harakatlaridan olam-olam zavq-u quvonch olib qaytdik.

Surxonning tinib tinchimas ijodkorlari behad ko'pligini sahifalarimizdagi she'r-u maqolalarni to'lib-toshganligidan bilsangiz bo'ladi. Maxsus sonimizdan ortib qolgan taassurotlarni yil davomida berib borishga ahd qildik.

Fursatdan foydalanib,

mazkur sonni tayyorlashda bizga yaqindan ko'mak bergan O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta'limi vazirligiga, Matbuot xizmatiga, Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Hayitali Alardonovga hamda «Baqtiriya» viloyat gazetasi bosh muharriri Norquvat To'rayevga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.


Maxsus sonni nashrga tayyorlaganlar: To'liq Hayitov, Feruza Jalilova, Axtamqul Karim, Feruza Adilova, Yusuf Abdullayev, Ma'mura Madrahimova, Gulyuz Orifjonova, Nargiza Abdullayeva, Fazliddin Shoydgorov.

Surxon - maftunkor yurt

(Davomi. Boshi 1-betda)

«SURXON DIYORI» AYLANMA KROSSVORDI

- Belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida: 1. Hududining kattaligi va aholisining soni jihatidan Termizdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi shahar. 2. Taniqli o'zbek polvoni, jahon chempioni, olimpiada o'yinlari sovrindori. 3. Viloyat janubida joylashgan tuman. 4. Viloyatda yaratilgan serhosil pomidor navi. 5. Qiziriq tumani markazi, shaharcha. 6. Qumqo'rg'on bilan chegaradosh tuman. 7. Vatanimizning janubiy darvozasi nomini olgan shahar, viloyat markazi. 8. Eski Termiz hududida qoldiqdari saqlanib qolgan II asrga mansub me'moriy obida, minora. 9. Viloyatning janubiy-sharqiy hududida esadigan, viloyat iqlimiga salbiy ta'sir etuvchi shamolga berilgan nom. 10. Kamyob jonvorlardan biri. 11. Aziz diyori. 12. Ovlanadigan, ko'rkam tog' parrandasi. 13. Tog'lik hududida o'suvchi kungurador, yapaloq bargli, tanasi qattiq daraxt. 14. Viloyat hududidagi tizma, Boysuntog'ning davomi. 15. Asosan Bobotog' yonbag'irlarida yetishtiriladigan quruq meva. 16. Tog'lik nomi bilan ataluvchi tuman. 17. Viloyat teleradiokompaniyasi. 18. Surxondaryo,



- Qashqadaryo viloyatlari, shuningdek, Tojikiston va Turkmaniston dostonchilik maktabiga asos solingan tuman. 19. Suv omborlaridan biri. 20. Surxondaryo qo'g'irchoq teatrda sahnalashtirilgan Alp Jamol asari. 21. Daryolarida ko'p tarqalgan, ovlanadigan jivivor. 22. Mahalliy giyohlardan dori-darmon ishlab chiqaruvchi Hindiston - Termiz qo'shma korxonasi. 23. Yetishtirilayotgan sitrus meva turi. 24. Viloyatda tavallud topgan olamga mashhur muhaddislardan biri.

QAYSI ASAR?

Shakl aylanalaridan bosh harfni topib, bir xil miqdordagi aylanalarni qoldirib, ketma-ket o'qish bilan adabiyotimizda yaratilgan mashhur roman nomini bilib oling. Endi ushbu asar muallifi O'zbekiston Xalq yozuvchisi, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti laureatiga sazovor bo'lgan surxondaryolik ijodkor nomini toping.

Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR: To'liq HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Avaz MARAHIMOV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbar RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kottib), Dilmurod RAHMATILAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@bk.ru www.tongyulduzi.uz Tel: 244-27-25, 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 71319 Buyurtma N: J 9568

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOL» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.

Dizaynerlar: Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV Navbatchilar: Axtamqul KARIM, Yusuf ABDULLAYEV